



RUBOB INSTRUMENT: ITS ROLE AS A TRADITIONAL MUSICAL INSTRUMENT

Saitov Jaqsilq Jarilqasinovich

Lecturer at the Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15228604>

ARTICLE INFO

Received: 09th April 2025

Accepted: 15th April 2025

Online: 16th April 2025

KEYWORDS

Rubob, stringed instrument, ethnomusicology, folk music, traditional performance.

ABSTRACT

This article discusses the origin, structure, performance traditions, and current significance of the rubob, one of the traditional stringed instruments of the Uzbek people. The history of the rubob's formation, its regional variations, and its place among the younger generation are analyzed based on scientific sources, stage performances, and practical observations. The article is written from an ethnomusicological perspective and provides scientific conclusions about the role of the rubob in the national music heritage.

RUBOB CHOLG'USI: AN'ANAVIY MUSIQA ASBOBI SIFATIDA O'RNI

Saitov Jaqsilq Jarilqasinovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15228604>

ARTICLE INFO

Received: 09th April 2025

Accepted: 15th April 2025

Online: 16th April 2025

KEYWORDS

Rubob, torli cholg'u, etnomusikologiya, xalq musiqasi, an'anaviy ijrochilik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek xalqining an'anaviy torli cholg'ularidan biri – rubobning kelib chiqishi, tuzilishi, ijrochilik an'analari hamda hozirgi davrdagi ahamiyati yoritiladi. Rubobning shakllanish tarixi, turli mintaqalar kesimidagi farqlari va yosh avlod orasidagi o'rni ilmiy manbalar, sahna ijrochiligi va amaliy kuzatuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqola etnomusikologik yondashuv asosida yozilgan bo'lib, rubobning milliy musiqa merosidagi o'rni haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Rubob – Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy torli cholg'ularidan biri bo'lib, O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo hududlarida keng tarqalgan. Bu cholg'u asbobi faqat musiqa ijro vositasi emas, balki milliy madaniyatning muhim timsollaridan biridir. Ushbu maqolada rubobning tarixi, tuzilishi, ijrochilik an'analari va hozirgi davrdagi ahamiyati o'rganiladi. Rubob-torli cholg'u musiqa asbobi. Nohun (mediator) bilan chertib chalinadi. Cholg'u musiqa ijrochilik san'ati o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rin tutadi. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: "Kishi ovozigaga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u sozlar-g'ijjak, rubob, nay va surnaydir, ushbu cholg'ular inson ovozigaga juda yaqinligini ta'kidlaydi. Forobiy fikricha: "Musiqasi - nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir" [1.B7]



Qolaversa, cholg'u sozlar ashulaga ham jo'r bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismlarini hosil qiladi". Farobiyning bergan ta'riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, rivojlanib kelmoqda. XVI-XVII- asrlarda yashab ijod etgan buxorolik Najmiddin Kavkabi va Darvish Ali Changiy risolalarida ham cholg'u sozlarining mukammal ro'yxati, ularning kelib chiqishi va sozandalar haqida qimmatli ma'lumot berilgan. Darvish Ali Changiyning o'zi ham rebab chalgan, rubob cholg'usi o'sha davrda rebab deb yuritilgan. Rubob - torli cholg'u asbobi, chertib chalinadi. O'zbek, tojik, uyg'ur, afg'on va boshqa Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Bazi olimlarning fikriga ko'ra qadimiy ikki torli kamonli rubobdan zamonaviy skripka yuzaga kelgan.

Maqolani tayyorlashda etnomusikologik yondashuv asosida ilmiy manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanildi. Shuningdek, rubob ustalarining intervyulari, O'zbekiston konservatoriyasi va muzeylarida mavjud bo'lgan rubob namunalari tahlil qilindi.

Tadqiqotlar natijasida rubobning quyidagi xususiyatlari aniqlandi: Rubob qadimda asosan yog'ochdan yasilib, ustki qismi teri bilan qoplanadi, torlari esa ipak yoki metallardan bo'lgan. Hozirda asosan uch turi mavjud: qashqar, pomir, afg'on ruboblari. Qashqar rubobining uzunligi 80-100 sm, cho'michsimon kosasi tut va boshqa qattiq go'lachalaridan o'yib yasaladi va ustiga qattiq teri qoplanadi. Dastasi uzun, uchi orqaga qayrilgan bo'lib, kosadan boshlanadigan joyiga qo'chqorga o'xshash ikkita gajagi mavjud. Dastasiga pardalari 19 tadan 23 tagacha ichakdan, hozir metaldan qilinadi xromatik tovush qatorni tashkil qiladi. Qashqar rubobining 5 ta tori odatda kvarta -kvinta oralig'ida sozlanadi. Diapazoni 3 oktavaga yaqin. Tovushi jarangdor. Ijrochilikni o'zlashtirish birmuncha yengilligi mohir sozandalar- M. Mirzayevning yetishib chiqishi bu sozning 1940-yillardan O'zbekiston va Tojikistonda havaskor va professional sozandalar orasida ommaviylashuviga sabab bo'lgan. Rubob asosan sozandalar tomonidan turli an'anaviy, folklor va klassik musiqa asarlarini ijro etishda ishlatiladi. Uning yoqimli va jozibali ovozi tufayli u ko'plab musiqiy ansambllarda asosiy cholg'u sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, rubob turli zamonaviy musiqiy janrlarda ham qo'llanilmoqda.

Qashqar rubobining zamonaviylashgan qayta turi rubob -prima o'z imkoniyatlari bilan rus domrasiga yaqin, 4 metal tori kvinta oralig'ida sozlanadi. Orkestrda va yakkasoz xonandalarda ishlatiladi. Uning turlari hududlarga qarab farqlanadi: Xorazm rubobi, Buxoro rubobi, do'mbira-rubob va h.k. Rubob yakka va ansambl ijrosida, to'y-marosimlarda, xalq bayramlarida keng qo'llaniladi. Yosh avlod orasida rubobga qiziqish ortmoqda, musiqa maktablarida rubob sinflari faoliyat yuritmoqda.

Rubob - Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy torli cholg'ularidan biri bo'lib, O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo hududlarida keng tarqalgan. Bu cholg'u asbobi faqat musiqa ijro vositasi emas, balki milliy madaniyatning muhim timsollaridan biridir.

Biz, tahliliy usulda - rubob haqida mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, dissertatsiyalar o'rgandik. Xalq og'zaki ijodi, an'anaviy marosimlar, ustoz san'atkorlarning fikrlari asosida ma'lumotlar to'pladik, konservatoriyalar, musiqa maktablari va madaniyat markazlaridagi rubob darslari va konsertlari kuzatdik, rubobning turli mintaqaviy variantlari (Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo) o'zaro qiyosladik.

Tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:



Tarixiy ildizlar: Rubobning ilk ko'rinishlari qadimiy Sharq musiqa madaniyatida miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Uning nomi fors-tojik manbalarida ham uchraydi. Rubob yog'ochdan yasalgan, ustki qismi teri bilan qoplangan, odatda 3–6 ta torli cholg'u bo'lib, torlari ipak, metal yoki zamonaviy sintetik materiallardan tayyorlanadi. Ularda mintaqaviy farqlar mavjud: Xorazm rubobi – uzunroq bo'yli, torlari ko'proq bo'lgan, ancha murakkab ijrochilikni talab qiladi. Buxoro rubobi – torlari kamroq, yumshoq va lirizmga boy tovushga ega. Do'mbira-rubob – Qashqadaryo va Surxondaryo hududlariga xos aralash cholg'u shakli. Rubob yakka ijro, ansambl va katta orkestr tarkibida ishlatiladi. Unda do'stlik, muhabbat, xalq dostonlari kabi mavzular kuylanadi. Rubobni o'qitish usullari haqida ko'pchilik tadqiqotchilar ilmiy ishlar olib borgan. Ali Akbar Jomiy o'z ilmiy ishlarida rubobni o'qitish metodlarini va o'quv jarayonini tushuntiradi [2.45].

Zamonaviy ahamiyati rubob O'zbekiston musiqa maktablari va oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. Yoshlar orasida rubobga qiziqish ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ko'plab ijodiy festivallar va tanlovlarda rubob ijrochilari faol ishtirok etmoqda.

Rubob – bu oddiy cholg'u emas, balki xalq ruhiyatining timsolidir. Uning tovushida xalqning dardu hasrati, quvonchu shodligi mujassam. Tarixiy taraqqiyot jarayonida rubob ko'plab o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, o'zining milliy xususiyatlarini saqlab qolgan. Rubobning xususiyatlari haqqida uni oqitish usullarining samarali taraflari haqida Murod Suyunov, o'z ilmiy ishlarida fikirlar aytib o'tadi. [3.32] Hozirgi globallashtirish davrida rubobni asrab-avaylash, uning an'anaviy shakllarini zamonaviy sahnaga olib chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, raqamli platformalarda rubob musiqasining targ'iboti, arxivlashtirish va xalqaro darajada tanitish ishlari kuchaytirilishi lozim. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin, rubob O'zbekiston milliy musiqa madaniyatining bebaho boyligi hisoblanadi. Uning rivojiga oid ilmiy tadqiqotlar, pedagogik dasturlar va xalqaro hamkorliklar orqali bu cholg'u vositasini kelajak avlodlarga yetkazish mumkin. Rubobga qaratilgan e'tibor nafaqat musiqa sohasida, balki milliy o'zlikni anglashda ham muhim o'rin tutadi.

References:

1. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari T. 2014, 7-bet.
2. Ali Akbar Jomiy - "Musical Instruments of Central Asia" T. 2015, 45-bet
3. Murod Suyunov - "Traditional Music and Instruments" T. 2018, 32-bet